Xorijlik olimlar Kenan Degirmenci, Maykl H. Breitner³ning fikriga ko'ra, elektr transport vositalari atmosferaga turli zararli gazlarini chiqishini kamaytirish bilan bir qatorda ushbu transportning narxi boshqalarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Yana bir guruh mualliflarning⁴ qayd etishicha, Norvegiyada shaxsiy transport vositasi egalarining elektromobillardan foydalanishni targ'ib qilish maqsadida davlat darajasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan, soliq imtiyozlari, yo'l haqi va boshqa turdag'i rag'batlanirish tizimi joriy etilgan. Olimlar D. S. Kuzminich, L. N. Parshina, A. V. Silin, O. N. Grinyukning fikricha⁵, elektr transport vositalarini ishlab chiqarish ekologik jihatdan eng maqbul ekanligini ta'kidlab, avtomobil transportidan intensiv foydalanish ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sababli bugungi kunda Rossiyada avtomobil transportida elektromobillar soni yildan-yilga ortib borayotganini qayd etib o'tganlar.

Mahalliy olim S. Yusupov o'z tadqiqotida⁶ bir yilda 1 ta elektromobilning harakatlanishi issiqxona gazlarini yiliga 2,5 tonnaga kamaytirib, an'anaviy yoqilg'ida harakatlanadigan avtomobil 15000 km masofani bosib o'tish davomida atmosfera havosiga 3,5 tonnaga yaqin zararli gazlar tashlashi va bu gazlarning 65 % aynan issiqxona gazlarini tashkil qilishini ta'kidlaydi.

Yuqoridaqizlanishlar hamda mutaxassislarning fikr-mulohazalarni tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda elektromobillarga bo'lgan talab iste'molchilar o'tasida ham katta qiziqishga sabab bo'lmoqda, biroq ushbu tarmoqni rivojlantirish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud bo'lib, bular jumlasiga xizmat ko'rsatish tarmog'i ya'ni, ta'mirlash va elektr yonilg'i quyish shaxobchalarining rivojlangan infratuzilmasi mavjud emasligi soha rivojiga ta'sir etmoqda, deb hisoblaymiz.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda jahonda tabiiy ofatlar va inson omili tufayli ob-havo, atrof-muhit hamda ekologik vaziyat Yer sharining barcha mintaqalarida sezilarli tarzda o'zgarmoqda, suv va tuproq tarkibi tobora ifloslanmoqda, o'simlik va hayvonot turlari kamayib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, atrof-muhitga, sayyoramizdagi barcha insonlarning sog'lig'iga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmoqda⁷. NCEI (atrof-muhit ma'lumotlari milliy markazi)ning bergen ma'lumotlariga ko'ra⁸, so'nggi 9-yil mobaynida anomal issiq rekord darajada ko'tarilgan. Buning natijasida dengiz sathi ko'tarilib, muzliklar yiliga o'rtacha 3 mm hajmda erimoqda.

Shimoliy Amerika va Yevropadagi kuchli momaqaldoqlar, Turkiya va Suriyadagi yirik zilzilalar, Kaliforniyadagi o'rmon yong'inlari, Markaziy Osiyodagi jazirama va qurg'oqchilik kabi iqlim o'zgarishining ta'siri bugun Yer sharining dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, kuchli bo'ronlar ulushi ortib borayotganiga ishoralar mavjud.

Avtomobilsozlik sanoati ishlab chiqarish sanoatida yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, uning ulushi ishlab chiqarish, mahalliylashtirish va aholini ish bilan band qilishda iqtisodiyotning lokomotivi hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda avtomobil sanoatini rivojlantirish, istiqboldagi 300 mingta elektromobil ishlab chiqarish maqsadlarini ruyobga chiqarishda innovatsion faoliyatga asoslangan tashkiliy, texnik-tehnologik jarayonlarning yangi

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi PQ-443-sonli "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6316583>

3 Kenan Degirmenci, Michael H. Breitner. Consumer purchase intentions for electric vehicles: Is green more important than price and range? Transportation Research Part D: Transport and Environment. –Volume 51, March 2017. –Pages 250-260.

4 Avi Chaim Mersky, Frances Sprei, Constantine Samaras, Zhen (Sean) Qian. Effectiveness of incentives on electric vehicle adoption in Norway. Transportation Research Part D: Transport and Environment. –Volume 46, July 2016. –Pages 56-68.

5 Переход на электромобили для улучшения экологической ситуации / Д. С. Кузьминич, Л. Н. Паршина, А. В. Силин, О. Н. Гринюк // Гуманитарные и естественные факторы решения экологических проблем и устойчивого развития: Материалы семинара международной научно-практической конференции. Новомосковск, 16–17 октября 2020 года / Российский химико-технологический университет имени Д. И. Менделеева; Новомосковский институт. – Новомосковск: Новомосковский институт (филиал) федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования "Российский химико-технологический университет имени Д.И. Менделеева", 2020. – С. 85-89.

6 Yusupov Sarvarbek Sodiqovich. Mamlakatimizda elektromobillarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlarning tahlili va infratuzilmani yaratishning ahamiyati. KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITY IN CENTRAL ASIAN JOURNAL OF STEM ISSN 2181-2934 <https://stem.kiut.uz/index.php/journal/article/view/72/69>.

7 <https://parliament.gov.uz/upload/iblock/074/fpjeggfutkglyz-jzajpbbbodcelhrf%20dwvnbcthwnscyq.pdf>.

8 <https://www.ncei.noaa.gov/access/monitoring/monthly-report/global/202309>.



ko'rinishlarini yaratish, joriy etish va sohani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi ko'rinishdagi texnik-teknologik jarayonlar, ya'ni, innovatsiyalarni qo'llash asosida avtomobilsozlik sohasiga hissa qo'shadigan ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion faoliyatini yetarli salohiyatga ega bo'lish uchun xorijiy investisiyalar jalb etilmoqda⁹. Albatta, bu va bu kabi hodisalarni faqat iqlim o'zgarishi bilan bog'lab bo'lmasa-da, statistik ma'lumotlarda ularning ulushini sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi muammolarni yumshatish uchun aksariyat davlatlarda "yashil" iqtisodiyot tushunchasi tobora targ'ib etilib, mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar turli darajada rag'batlantirib kelinmoqda. Jumladan, Atmosferaga karbonat angidrid chiqarilishini kamaytirish maqsadida Yevropa Ittifoqi¹⁰ hamda Kaliforniya shtat¹¹ 2035-yildan boshlab benzin va dizel dvigatelli yangi avtomobillarni sotishni to'liq taqiqlash tizimi joriy etilishini e'lon qildi. Albatta, bunda aholi turmush tarzi, iste'molchilarning innovatsiyalarga ta'sirchanligi, haydovchining malakasi, yoshi, jinsi, oilaviy sharoiti, yashash joyi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, huquqiy savodxonligi kabilalar inobatga olinmoqda. Shu bilan bir qatorda, ko'plab davlatlar elektromobillardan foydalanish salmog'ini oshirish maqsadida davlat strategiyalari va subsidiyalar orqali, soliq imtiyozlari, shu jumladan, texnologiyaning o'zi bilan bog'liq turli omillarga, masalan, operatsion xarajatlar, zaryadlash infratuzilmasini yaratish bilan bog'liq turli imtiyozlar joriy etmoqda.

Daniya, Isroil va AQShda elektr transport vositalarining ishlashini ta'minlash uchun samarali infratuzilma yaratilgan bo'lib, batareyalarni qayta zaryadlash stansiyalari tarmog'i rivojlangan.

Elektromobil sanoati bugungi kunda dunyodagi avtomobil sanoatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi so'nggi yillarda tabiatda bo'layotgan turli o'zgarishlar, xususan, iqlim o'zgarishi, ekologiya bilan bog'liq bo'lgan boshqa muammolar, aholining o'sib borishi, cheksiz ehtiyojlar va resurslarning kamayib borayotganiga elektr transport vositalari qisman yechim bo'lib, yuqorida keltirilgan muammolarga ta'sir ko'rsatmaydigan va yuqori samaradorligi bilan ommani jalb etib kelmoqda. Bundan tashqari, elektromobil sanoati quyidagi muammolarda ahamiyatga ega hisoblanadi:

- **Ekologik muammolar:** An'anaviy avtomobillar ajratadigan zaharli gazlar tarkibida 200 ga yaqin birikmalar bo'lib, ularning aksariyat qismi zaharli gazlar hisoblanadi. An'anaviy turdag'i avtomobil gazlari bilan ifloslangan muhitda uzoq bo'lish organizmni umumiylashtirishga olib keladi. Aynan avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar bilan ifloslangan havodon nafas olish natijasida nafas olish yo'llari, yurak kasalliklari, insult va o'pka saratoni kabi og'ir kasalliklar kelib chiqadi. Bundan tashqari atrof-muhitga ham salbiy ta'sir etadi. Elektromobillar, bu kabi noxush gazlarni emas, balki hech qanday zaharli gaz chiqarmaydigan elektr energiyasidan foydalanish orqali ishlaydi. Bu esa atrof-muhitga zarar yetkazishni kamaytiradi va iqlimdag'i o'zgarishlarni yumshatadi.
- **Energiya muammolarini hal qilish:** Elektromobillar, energiyani samarali sarflanishi hisobiga yoqilg'i iste'molini kamaytiradi hamda boshqa sohalarni rivojlantirish imkonini yaratadi.
- **Texnologik rivojlanish:** Elektromobil sanoati, yuqori texnologiyalarni va innovatsiyalarni qo'llash orqali avtomobil sanoatiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Bularga kuchli batareya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan haydash tizimlari va boshqa zamonaviy anjomlarni misol qilishimiz mumkin.
- **Quvvatlash shaxobchalarining yaratilishi:** Elektromobil sanoati, yuqori tezlikda kuchaytirilgan batareya texnologiyalari va savdo-sotiq jarayoni o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi. Bu esa yangi energiya quvvatlash texnologiyalarini rivojlantirish, misol uchun quvvatlanish shaxobchalari, aloqa texnologiyalari rivojlanishi va shu orqali yangi ish o'rinalarini yaratishga imkon beradi.
- **Iqtisodiy o'sish:** Elektromobil sanoati, yangi ish joylarining yaratilishiga, innovatsiyalarni sanoatga kiritishga va avtomobil ishlab chiqarish va qo'llashning yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa ish o'rinalarining o'sishi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholi o'tasida elektromobillarni ommalashish, uning xaridini rag'batlantirish borasida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Chunki elektromobillar energiya manbaidan mustaqil ishslash imkoniga ega bo'lgan elektrovgatellar orqali harakatga kiruvchi transport vositasidir¹². Hozirgi kunda ularning xususiyatidan kelib chiqib, bir nechta turi va modellari mavjud. Misol uchun, shahar, suv transportlari,

9 N.M.Rasulov. Actual Problems and Prospects of Development of National Innovative System in Uzbekistan / Indian Institute of Finance Vol. XXXIII No. 2, June 2019. Pages – 399 – 406, India. ISSN : 09703772 (Online).


10 <https://www.npr.org/2023/03/30/1166921698/eu-zero-emission-cars>.

11 <https://www.cnbc.com/2022/08/25/california-bans-the-sale-of-new-gas-powered-cars-by-2035.html?&qsearchterm=California>

12 Червова Наталья Владимировна РЫНОК ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ: ЭТАПЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2023. №7. URL: <https://cyberleninka.ru> (дата обращения: 11.03.2024).



sport va yuk avtotransportlari. Jahon avtomobil sanoatining rivojlanishi natijasida O'zbekistonda ham 2018-yildan elektromobillar importi keskin ortdi (1-rasm).



1-rasm: O'zbekistonda elektromobillar importi dinamikasi¹³, dona

Mamlakatimizga 2018-yilda 13 dona elektromobil olib kirilgan bo'lsa, bu ko'satkich 2022-yil yakuniga qadar qariyb 44 baravarga ortgan. Birgina 2021-yilda 16,9 mln. AQSh dollari miqdorida jami 809 ta elektromobil import qilingan, bu ko'satkich 2022-yilga kelib 69,8 mln. dollarga teng 2180 ta zamonaviy avtomobil qurilmalarini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra¹⁴, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 582 mln dollarlik 22 490 ta avtomobil olib kirilgan. Mamlakatimizga eng ko'p elektromobil eksport qilgan mamlakatlar orasida Xitoy yetakchilik qilmoqda. Keyingi o'rnlarda Gong Kong, Germaniya, Koreya, BAA va AQSh mamlakatlari joy egalladi. Bundan tashqari, Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimiz shaharlarida elektrobuslar harakatlanib yildan-yilga salmog'i ortib bormoqda. "Toshshahartransxizmat" AJ axborot xizmati ma'lumotiga ko'ra¹⁵, 2023-yilda 94,6 mln. yo'lovchi jamoat transportidan foydalanishga o'tishi natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori 61,9 ming tonnaga kamaydi. 2023-yilda 27 avtobus yo'nalishi to'liq elektrobuslarga o'tkazildi. Natijada avtobuslardan havoga chiqadigan zararli moddalar miqdori oyiga 93,3 tonnaga kamaydi. Elektrobuslar harakatlanayotgan yo'nalishlarda yo'lovchi oqimi 188% ga ortishi olib borilayotgan islohotlarning samarasini desak mubolag'a bo'lmaydi. Umumiy olganda, u iqtisodiy tarafdan an'anaviy transportlarga nisbatan kamxar va moliyaviy jihatdan foyda keltirmoqda.

Bugungi kunda yurtimiz ko'chalarida har 10 tadan bitta elektromobillarning harakatlanayotganiga guvoh bo'imoqdamiz. Uning ekologiyaga ijobiy ta'siridan tashqari, yuqori energiya samaradorligi, avtoulov boshqaruvining soddaligi va past shovqinlanishi, an'anaviy avtomobillarga nisbatan tez ishga tushishi va tezlanishida ham ustunliklarga ega bo'lsa-da, uning murakkab ishlab chiqarish jarayoni, yuqori texnologik xizmatlarni o'z ichiga olishiga sanoatning o'gir turi hisoblanadi. Uni amaliyotga joriy etish bo'yicha so'nggi yillarda Xitoy yuqori o'rnlarda turgani hech kimga sir emas. Yurtimizda ham Xitoy elektromobillar eksporti bo'yicha birinchi o'rinni saqlab qolib 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan jami elektromobillarning 20,64 mingtasi (91,7 foiz) Xitoy elektromobillari tashkil qildi.

Dastlab Xitoy ushbu transport vositalari bozorini qo'llab-quvvatlash uchun katta mablag' ajratdi. Mamlakat rahbariyati, albatta, elektromobillar bozorini rivojlantirishni rag'batlantirishda ba'zi muammolarga duch kelgan bo'lsa-da, raqobatbardoshlikka erishish uchun elektromobil ishlab chiqarish kelgusida mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqqan holda bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirdi. Hukumat birinchi navbatda ekologik toza bo'lgan elektromobillar elektr energiyasi bilan harakatlanishini hisobga olgan holda


13 Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

14 <https://t.me/customschannel/31637/>

15 <https://t.me/tshtxuz/5711>



elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayoniga alohida ahamiyat qaratmoqda. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy elektr energiyasining qariyb 65 foizi issiqlik energiya stansiyasida, ayniqsa, ko'mirdan foydalangan holda ishlab chiqarilmoxda. Shuningdek, elektr transport vositalarini ishlab chiqarishda litiy-ionli batareyalarini ishlab chiqarish jarayonini ham talab etadi. Ularni ishlab chiqarish uchun yuqori darajadagi toza litiy talab qilinadi, buning uchun katta miqdordagi elektr energiyasi sarflanishi hisobiga bu yana issiqlik elektr stansiyalarida ko'mir yoqishni talab etadi. Bu esa, o'z nabatida elektromobilarning atrof-muhitga salbiy ta'siri an'anaviy transport vositalari bilan bir hil deganidir. Shu munosabat bilan, Xitoy hukumati qazib olinadigan yoqilg'ining ulushuni kamaytirish maqsadida quyosh, atom, shamol, gidroenergetika kabilar orqali energiya olish tizimini rivojlantirmoqda (2-rasm).



2-rasm: Xitoya elektr energiyasi ishlab chiqarish tuzilmasining dinamikasi¹⁶ (2010–2020-yillar)

Rasmdan ma'lum bo'lmoqdaki, 2010–2020-yillarda mamlakatda qazib olinadigan yoqilg'iarning salmog'i yildan-yilga kamayib bormoqda. Garchi, elektr transport vositalarining ekologiyaga umumiyligi ta'siri ilmiy jihatdan to'liq o'r ganilmagan bo'lsa-da, ushu amaliyotning joriy etilishi shahar atrof-muhitining ekologiyasini yaxshilashga yordam bermoqda. Gonkong Xitoy instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki¹⁷, havoning ifloslanishi so'nggi o'n yilda Xitoy shaharlari aholisining sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazgan va o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilgan. Shu sababli, elektr transport vositalarining joriy etilishidan asosiy maqsad Xitoya sog'liqni saqlashni yaxshilashga qaratilgan.

Bundan tashqari, XXRning elektromobil sanoatini rivojlantirishni rag'batlantirishdan ko'zlangan yana bir maqsad – bu neftga bo'lgan qaramlikni kamaytirishdir. Elektr transport vositalariga o'tish Xitoyning uglevodorod yoqilg'isini import qilishga bog'liqligini kamaytirish orqali 2022-yilda XXR milliy ishlab chiqarish orqali kerakli miqdordagi nefting taxminan 25 foizini va ko'mirning taxminan 90 foizini ta'minladi¹⁸. E'tiborli jihatni shundaki, mamlakatga avtomobil importi keskin kamayib, eksporti yildan-yilga ortib bormoqda.

Avtomobil sanoati rivojlanishi bilan bir qatorda tegishli tarmoqlar ham tobora rivojlanmoqda. Masalan, elektr transport vositalarining joriy etilishi va ishlab chiqaruvchilar o'rtaсидagi raqobat sabab innovatsion loyihibar qo'llab-quvvatlanmoqda. Misol uchun, qo'shilayotgan raqamli aqlii tizimlar, autopilot tizimlarining rivojlanishi, aqlii va simsiz zaryadlash texnologiyalari ham rivojlanmoqda. Bundan tashqari, elektr transport vositalarini tezroq zaryadlashni qo'llab-quvvatlaydigan texnologiyalar ishlab chiqarilmoxda, zaryadlash infratuzilmasi qurilmoqda.

16 <https://international.lbl.gov/sites/default/files/2022-04/China%20Energy%20Outlook%202022-full%20report%2004.22.22.pdf> 46-p.

17 Leung F. Evidence of Ozone-Induced Visible Foliar Injury in Hong Kong Using Phaseolus Vulgaris as a Bioindicator / Felix Leung // Atmosphere. – 2020. – Vol. 11, Issue 3 // URL: <https://www.mdpi.com/2073-4433/11/3/266> (дата обращения: 07.03.2020) – P. 1.

18 Zhou, N., Khanna, N., Zhang, J., Lu, H., Price, L., Fridley, D., Ke, J., Feng, W., Shen, B., Lin, J., and Levine, M. 2022. China Energy Outlook 2022. Berkeley, CA: Lawrence Berkeley National Laboratory (LBNL-2001444) // URL: <https://international.lbl.gov/china-energy-outlook> – P. 42-43.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston, elektromobil sanoatini rivojlantirishga qaratilgan qadamni amalga oshirish uchun bir nechta usullar va strategiyalarni amalga oshirishga oid qadamlar olib borgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari quyidagi strategiyalar yurtimiz elektromobil sanoatini rivojlantirishga yordam berishi mumkin, deb hisoblaymiz:

1. Qonuniy kafolat va iqtisodiy dasturlar: O'zbekiston hukumati elektromobil sanoatini rivojlantirish uchun qonuniy kafolatlar taqdim etishi va to'g'ridan-to'g'ri sanoatni muvaffaqiyatga olib chiqish uchun iqtisodiy dasturlar ishlab chiqishi muhimdir. Bu dasturlar moliyaviy ta'minot, subsidialar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy stimullar orqali yangi sanoatni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.
2. Investitsiyalar va innovatsiyalar: Sanoat sohasiga investitsiyalar jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shuningdek, oliy ta'lif muassasalariga va soha bo'yicha yangiliklarni kafolatlash orqali, elektromobilni isloh qilish bo'yicha ishlab chiqilgan yetuk texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.
3. Infratuzilma tuzish: Elektromobil sanoatini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlar orasida, mahalliy shaxbobchalar va boshqa infratuzilmani tuzish juda muhimdir. Elektromobil yo'l xizmatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan istiqomat sharoitlari, xarajatlarni tugatish, mashinalarni to'ldirish stansiyalari va boshqa yo'l xizmatlari tuzilishi kerak.
4. Rivojlanayotgan bozorlar va global integratsiya: O'zbekistonda elektromobil sanoatini rivojlantirishda, xalqaro bozorlar va moliyaviy integratsiya uchun ochilganligini tushuntirish uchun xalqaro miqyosda xarajatlarni kamaytirish va eksportni kengaytirishga intiladigan strategiyalar rivojlanishi lozim.
5. Sanoat va ta'lif sohasidagi hamkorlik: Sanoat korxonalari bilan mahalliy oliy ta'lif muassasalari o'rta-sida hamkorlik, xususan xalqaro hamkorlik va ta'lifni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlikning oshishiga imkon beradigan ko'plab dasturlar ishlab chiqilishi kerak.
6. Tashqi aloqlar: O'zbekiston sanoatini rivojlantirish uchun tashqi aloqalarni o'rganish, moliyaviy maqsadlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, sanoatning yanada integratsiyalangan va moliyaviy ravishda mustahkamlashtirilgan bo'lishiga yordam berishi mumkin.
7. Sanoat korxonalarini isloh qilish: Mamlakatning avtomobil sanoati korxonalarini, avtomobil ishlab chiqarish texnologiyalari va mahsulotlarini modernizatsiyalash, elektr transport vositalarini ishlab chiqarishni yo'liga qo'yish.
8. Turli sohalar bilan integratsiya: Elektromobil sanoati turli sohalarga integratsiya qilinadi, masalan, batareya texnologiyalari, energetika sohasi va boshqa innovatsiyon loyihalar o'rta-sida hamkorlikni rivojlantirish.
9. Marketing va sotish strategiyalari: Elektromobil sanoatini rivojlantirish uchun ta'sirchan marketing va sotish strategiyalarini rivojlantirish, mijozlarga elektr transport vositalarining afzalliklarini va samaradorligini ko'rsatib beradi.

Ushbu qadam va strategiyalar O'zbekistonda elektromobil sanoatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi "Elektromobil ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-443-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6316583>. Kenan Degirmenci, Michael H. Breitner. Consumer purchase intentions for electric vehicles: Is green more important than price and range? Transportation Research Part D: Transport and Environment. Volume 51, March 2017. Pages 250-260.
2. Avi Chaim Mersky, Frances Sprei, Constantine Samaras, Zhen (Sean) Qian. Effectiveness of incentives on electric vehicle adoption in Norway. Transportation Research Part D: Transport and Environment. Volume 46, July 2016, Pages 56-68.
3. Yusupov Sarvarbek Sodiqovich. Mamlakatimizda elektromobilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilayotgan imkoniyatlarning tahilili va infratuzilmani yaratishning ahamiyati. KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITYIN CENTRAL ASIAN JOURNAL OF STEM ISSN 2181-2934 <http://stem.kiut.uz>.
4. Червова Наталья Владимировна РЫНОК ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ: ЭТАПЫ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2023. №7. URL: <https://cyberlen.ru>



- inka.ru/article/n/rynok-elektromobiley-etapy-tendensii-i-perspektivy-razvitiya (дата обращения: 11.03.2024).
5. Leung F. Evidence of Ozone-Induced Visible Foliar Injury in Hong Kong Using Phaseolus Vulgaris as a Bioindicator / Felix Leung // Atmosphere. – 2020. – Vol. 11, Issue 3 // URL: <https://www.mdpi.com/2073-4433/11/3/266> (дата обращения: 07.03.2020) – P. 1.
 6. Zhou, N., Khanna, N., Zhang, J., Lu, H., Price, L., Fridley, D., Ke, J., Feng, W., Shen, B., Lin, J., and Levine, M. 2022. China Energy Outlook 2022. Berkeley, CA: Lawrence Berkeley National Laboratory (LBNL-2001444) // URL: <https://international.lbl.gov/china-energy-outlook> – P. 42-43.
 7. N.M.Rasulov. Actual Problems and Prospects of Development of National Innovative System in Uzbekistan / Indian Institute of Finance Vol. XXXIII No. 2, June 2019. Pages – 399 – 406, India. ISSN : 09703772 (Online)
 8. IEA, Electric car sales, 2016–2023, IEA, Paris <https://www.iea.org/data-and-statistics/charts/electric-car-sales-2016–2023>, IEA. Licence: CC BY 4.0.
 9. <https://www.npr.org/2023/03/30/1166921698/eu-zero-emission-cars>.
 10. <https://www.cnbc.com/2022/08/25/california-bans-the-sale-of-new-gas-powered-cars-by-2035.html?&qsearchterm=California> <https://parliament.gov.uz/upload/iblock/074/fpjeggfutkglyz-jzajpbbbodcelhrf%20dwvnbcthwncsyq.pdf>.
 11. <https://www.ncei.noaa.gov/access/monitoring/monthly-report/global/202309>.
 12. <https://t.me/customschannel/31637>.
 13. <https://t.me/tshtxuz/5711>.
 14. <https://international.lbl.gov/sites/default/files/2022-04/China%20Energy%20Outlook%202022-full%20report%2004.22.22.pdf> 46-p.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

